

LISONIY VOSITALARNING TA'SIR KUCHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7848069>

Kurbanov Elbek Elmuradovich

PhD

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda sintaktik-semantik jihatdan nutqiy ta'sir vositalarini tanlash va qo'llash imkoniyatlari ko'pligi, sintaktik qurilishni tanlash, xususan, mavjud nuqtai nazarni o'zgartirish, vaziyatdagi muayyan ishtirokchilarning diqqat markaziga kirishi yoki kirmaslik, shu bilan bir xil evfemistik samaraga erishishi yoki, aksincha, undan qochishi mumkinligi haqida ham gap boradi.

Аннотация.

В данной статье также говорится о множестве возможностей выбора и применения средств речевого воздействия в современной лингвистике в синтаксико-семантическом плане, о том, что выбор синтаксического построения, в частности, изменения существующей точки зрения, может входить или не входить в фокус внимания конкретных участников ситуации, достигая при этом такого же эвфемистического эффекта или, наоборот, избегая его.

Abstract.

This article also talks about the abundance of possibilities for the selection and application of syntactically-semantically speaking means of influence in modern linguistics, the choice of syntactic construction, in particular, changing the existing point of view, entering or not into the focus of certain participants in the situation, thereby achieving the same euphemistic effect or, on the contrary, avoiding it.

Kalit so'zlar.

metagrafema, supragrafema, shrift tanlash vositalari – kursiv, tushirish, katta harflar, topografema, she'riy misra.

Inson nutqini ta'sirchan qilishda tovushlarining ahamiyati katta ekanligi ma'lum – tovush va ularni uzatuvchi harflarning assotsiativ komponenti bilan hosil qilingan til sohasi fonosemantika deb ataladi¹. Tovush va ma'no o'rtasidagi bu to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlar juda noaniq, aniqlashtirish qiyin, tushunarli bo'lishi uchun ko'plab misollar bilan asoslash kerak bo'ladi, agar she'r misolida olinsa, bu

¹ Бу ҳақида қаранг: Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2008. – 138 б.

alohida masala bo'ldi, ular his qilinadi, nasriy matnga qaraganda she'riy matnlarida lisoniy vositalar o'z ta'sirchanligini o'zgacha namoyon qiladi.

She'riy misralarning nutq shakli sifatidagi ta'sir kuchi o'lchab bo'lmas darajada qudratlidir. Shunday she'rlar va uni ifodali aytuvchilar borki, eshitganda kishi beixtiyor ho'ngrab yig'lab yuborishi yoki tabassum qilishi, qah-qah otib kulishi mumkin. Bu she'riy nutqning qudratidir. Shoirlar (Sh.Rahmon, E.Vohidov, A.Oripov) ijodida leksemalar yangi ma'no qirralari kasb etadi.

Tovush shaklining fonosemantik, alliterativ va ritmik xususiyatlari yozma nutqda ancha adekvat tarzda yetkaziladi. Biroq, faqat og'zaki nutq uchun ajratilgan fonetik ta'sir omillari ham mavjud. Bular, birinchidan, tilning prosodik vositalari: intonatsiya, ovoz registri (past va ultra-past registrning ovozi, ayniqsa, ta'sirchan deb qabul qilinadi), fonatsiyalar (nafas olish, tarang "musiqa fonatsiyasi", tinch ovoz) va artikulyatsion pozalar, nutq va pauza sur'ati kabilardir. Ikkinchidan, individual ovoz ham o'ziga xos ta'sir vositasi bo'lishi mumkin. O'rtamiyona boshqalarda uchramaydigan kuchli ta'sirga va tembrga ega notiq ham katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Zero, nutq har bir kishining jamiyatdagi o'rni va mavqeyini belgilab beradi. Dublyaj ustalari, suhandonlar, teatr aktyorlari, imomlar o'z nutqlari orqaligina jamiyatda alohida hurmatga va e'tiborga ega bo'lishadi. Buning zamirida nutqiy ta'sir ko'rsata olish malakasi turadi.

Bu borada izlanish olib borgan tadqiqotchilar nutq jarayonining turli qismlarida fonetik shakllanish turlicha bo'lishini ko'rsatganlar. Masalan, ma'ruza oxirida tinglovchilarning e'tibori susayadi. Bu davrda ovozni keskin ko'tarish va bir oz muddat pauza qilish yaxshi samara beradi².

Yozma nutqning ham o'ziga xos ta'sir vositalari mavjud. Bu metagrafema, xususan, bunday supragrafema sifatida uning vositalari (tanlash, shrift tanlash vositalari – kursiv, tushirish, katta harflar foydalanish, to'ldirish va shrift hajmi turli) va topografema (bir tekislikda bosma matnni joylashtirish usullari)dan iborat.

Nutqiy ta'sir maqsadlarida qo'llaniladigan eng ko'p tarqalgan va eng yaxshi o'zlashtirilgan til vositasi, albatta, so'z va ularning ekvivalent birikmalarini, xususan, frazeologik birliklarni tanlashdir. Leksik semantikaning xilma-xilligi tufayli so'z tanlash turli ta'sir turlari amalga oshiriladigan umumnazariy vosita bo'lib chiqadi.

² Карнюшина В.В. и др. Синтаксические и фонетические средства формирования эмоционального настроения и интимизации общения в лекциях: тактики речевого воздействия // <https://cyberleninka.ru/article/n/sintaksicheskie-i-foneticheskie-sredstva-formirovaniya-emotsionalnogo-nastroya-i-intimizatsii-obscheniya-v-lektsiyah-ted-taktiki>

Ko'p so'zlarning ma'nosida xissiy komponent mavjud va bunday so'zlarni tanlash orqali siz kuchli hissiy ta'sirga ega bo'lishingiz mumkin (ayniqsa, u boshqa vositalar bilan to'ldirilsa). Masalan, o'quvchiga hiyonat, talon-taroj, buzg'unchi fikr, inqiroz, razil g'oyalar, dahshatli bosqinchilik, psevdosientifik nazariyalar, misantropik ta'limotlar, barbarik bosqinchilik kabi salbiy tushunchalar berib uni o'zgartirish mumkin, ammo bunda notiqning dunyoqarashi, har bir tushunchani izohlashda ishonarli asosi bo'lishi lozim. Bugungi o'quvchi mantiqqa ko'proq tayanadi. Notiqning nutqida nomutanosiblik yoki talaffuzida nomuvofiqlik sezilsa ham nutqiy ta'sir o'tmaslashadi.

Suhbatdoshga motivatsiya berishda, uni ijobiy tomonga yo'naltirishda asosan, hayajonli, ehtirosli, umid bag'ishlovchi nutqlardan foydalanish, ohang ham shiddatliroq, zarur o'rinlarda mahzunroq bo'lishni taqozo qiladi.

Demak, kishini hayajonga solish, g'azablantirish, qo'rqitish va shu tariqa uning xatti-harakatini o'zgartirish mumkin ekan. His-tuyg'ularga bunday munosabatda bo'lish, albatta, har doim ham kutilgan natijani beravermaydi.

Stilistik jihatdan neytral so'zlar baholovchi komponentga va turli xil konnotatsiya va uyushmalarga ega bo'lishi mumkin, ularning hisobga olinishi va hisobning yetishmasligi nutqiy ta'sirning maqsadlariga to'sqinlik qiladi.

Nutqiy ta'sirni oshirish uchun so'z tanlashning va qo'llashning turli modellari mavjud bo'lib, muloqot vaqtida ulardan foydalanish ko'pincha noodatiy bo'ladi. So'zlar o'z tarkibidagi turli nuqtai nazarlarni tuzatishi mumkin (g'alaba va mag'lubiyat - bu turli pozitsiyalardan ko'rilgan bir xil vaziyatning tavsiflari va bir xil voqea. Masalan, "Paxtakor" ning g'alabasi va "Neftchi" ning mag'lubiyati deb atash mumkin), vaziyat ishtirokchilarining pozitsiyalarida assimetriyalar, kontent elementlarining turli mantiqiy holati (ayblash kerak bo'lgan ba'zi jinoyatlarni aniqlash va qoralash, aksincha, ba'zi harakatlarni sodir etish va uni ayblashni e'lon qilish), semantik komponentlar turli qiyosiy ahamiyati (so'z menejeri, boshqaruv jarayoni g'oyasi birinchi o'ringa keladi va so'z boshqaruv ob'yekti hamda uning natijalari haqida tasavvur hosil qiladi).

Nutqiy ta'sir etishning asosiy vositasi tanish va tushunarli (yoki, aksincha, noodatiy va tushunarsiz - agar matn tor doiradagi so'zlashuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lsa) so'zlarni tanlashdir.

So'z tanlash yordamida voqelik tasviri ham kuchli ta'sir etadi. Ko'pincha biz yuqorida aytib o'tilgan evfemizmlar bilan ishlashimiz kerak - haqiqatni to'g'ridan-to'g'ri aytib birovni xafa qilishdan ko'ra yashirin, jozibador so'zlarni qo'llash foydaliroq. Darvoqe, bu ham evfemizmlarning ko'pincha ijobiy emotsional

konnotatsiyaga ega bo'lishini, shu bilan birga hissiy ta'sirga ega bo'lishini anglatadi. Evfemizmlarning nutqdagi o'рни va ahamiyati o'ziga xosdir. Nutq madaniyatining asosiy birliklaridan desak, xato bo'lmaydi. Zero, evfemizmlar qo'pol, dag'al, o'rinsiz, sovuq so'zlar o'rniga yoqimli, qulay tushunchalarni qo'llashdir.

“Evfemizm – bu so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar”³ deyiladi. A.Hojiyev lug'atning qayta nashrida evfemizmgga quyidagicha izoh beradi: “Evfemizm (grekch. *эфемизм*; *йеты* – yaxshi, femi – gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida *homilador*, *og'ir oyoqli* so'zlarini qo'llash”⁴.

L.A.Bulaxovskiy: “**Evfemizmlar** yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yovuz kuchlarni chaqirish “xavfi”ni tug'dirmay gapirish, ... hammadan oldin “xavfning oldini olish” formulasidir”⁵, degan edi.

A. Omonturdiyevning “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyasida “So'z magiyasi” bobi mavjud. Unda diniy-mifologik ta'limotga ko'ra, so'zlar, ismlar azaldan “Lavh ul-mahfuz”da Qudrat qalami-la raqam qilingan va so'ngra osmondan tushirilgan (“Al-asmaau tanzilu min assamaai”). Til ham Allohning bandalariga ato etgan buyuk in'omidir. Demak, so'z muqaddas, u orqali Alloh vahiy-lari bayon etilgan samoviy kitoblar ham muqaddas. Hattoki, butun mavjudot harflardan, chunonchi, ikki olam yaratilgan, ya'ni ular qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Bunda “kof” va “nun” nazarda tutilgan. Bu talqinning mumtoz namunasi Alisher Navoiyning quyidagi ikki misrasida aks etgan:

Muhammad “kof”u “nun”ga qudrat ul-ayn,
Tufayli kavn o'lib, yo'q, yo'qki kavnayn.

Jon odam tanasiga kirishga qo'rqib turganda ham, so'z orqali, ya'ni Allohning “Yarhamka Robbi!” iborasi bilan kirgan yoki rivoyatlarda jon tanaga kirishga unamay turganda, Alloh amri bilan Jabroil alayhissalom dutor chalib, “Yosin” surasini o'qigan, jins jismga kirganini bilmay qolgan.

So'z, jumladan, nom magik qudratga ega deb ishongan qadimgi xalqlar dev, jin, alvasti, shayton, yalmog'iz kabi yovuz kuchlar; timsoh, akula kabi xavfli maxluqlar; ayiq, bo'ri, sher kabi yirtqich hayvonlar; ajdarho, ilon, chayon, biy kabi

³ Эвфемизм. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

⁴ Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. –Т., 2002. – Б. 45.

⁵ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М., 1953. – С. 175.

zaharli maxluq yoki hasharotlar; rak, sil, vabo kabi xavfli kasalliklar; marhum nomlari va shu kabilarni tabulashtirganlar. Marhumlar nomi ayrim holatlarda: dafnlash yoki arvohni shod etish, unga savob yuborish munosabati bilan, tilga olingan. Chunki savob marhumga faqat uning nomi orqaligina borib tegadi deb tushuniladi⁶.

Yuqoridagi monografiyaning o'ziga xos tomoni shundaki, unda so'zning ilohiy qudrati, nutqning ta'sir kuchi haqida, evfemizmlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida asosli fikrlar bayon qilingan.

Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik-semantik jihatdan nutqiy ta'sir vositalarini tanlash va qo'llash imkoniyatlari ko'p. Sintaktik qurilishni tanlash, xususan, mavjud nuqtai nazarni o'zgartirish, vaziyatdagi muayyan ishtirokchilarning diqqat markaziga kirishi yoki kiritmaslik, shu bilan bir xil evfemistik samaraga erishishi yoki, aksincha, undan qochishi mumkin.

Nutqiy ta'sirning barchaga ma'lum va tavsiflangan usullaridan – bu aniq nisbat o'rniga majhul nisbatdan foydalanish va qayta nomlashdir, majhul nisbatdan foydalanganda, harakatning haqiqiy bajaruvchisi haqidagi ma'lumot mutlaqo eslatilmasligi mumkin; bu ma'lumot rostdan ham noma'lum bo'lishi ham muayyan ta'sirga asos bo'lsa-da, ma'lumotlarni ataylab yashirish alohida nutqiy ta'sirga olib keladi:

“Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir, yo'qoldimi?

– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

– Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

– Ola ho'kiz...

– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

– Qo'sh mahali...

– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

– Bisotimda hech narsa yo'q...

– O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da!

Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

– Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

⁶ Омонтурдиев А. Профессионал нутк эвфемикаси. – Тошкент: Фан нашриёти, 2006. – Б. 28.

– Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, – suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?" (A.Qahhor, "O'g'ri").

Matnda yig'lanmasin, nega yig'lanadi, olib kelinmadimi kabi so'zlarda majhul nisbatning qo'llanilishi Qobil boboning ruhan ezilishi va shu tufayli poraxo'r amaldorning ichki istaklarini bajarishga tayyor bo'lishiga olib kelmoqda.

Qayta nomlash ham faol nutqiy ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri.

Masalan, kishi nomlari – antroponimlarni ham almashlash bu borada alohida o'rin tutadi.

Amerikalik taniqli psixolog Deyl Brekenrij Karnegi "Insonlarni og'dirib olishning olti usuli" kitobida quyidagicha fikr yuritadi: "Franklin Delano Ruzvelt insonlarni o'ziga og'dirib olishning eng sodda, ammo samarador va ahamiyatli yo'llaridan biri ismlarni eslab qolish va insonga o'zining ahamiyatli ekanligini his qilish imkonini berish ekanligini bilgan... Yodda tuting, inson uchun uning ismi ifodasi inson nutqidagi eng shirin va eng ahamiyatli jarangdir"⁷.

Insonlar nutqiy ta'sirning bu vositasidan samarali foydalanib keladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamni yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi, 2017-yil 4-avgust.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.

3. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Т.: Фан, 1981.

4. Агаронян А.С. Культура поведения. –Т.: Узбекистан, 1979.

5. Акбарова З. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филология фанлари доктори (Dsc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Фарғона, 2021. – 128 с.

6. Алпанова Ш.Х. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши. Филология

⁷ Карнеги Д. Шесть способов располагать к себе людей. Greatwords.org^authors\218

фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Андижон.: 2018. – 133 б.

7. Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация (на материале креолизованных текстов): учеб. пособие для студ. фак. иностр. яз. вузов / Е.Е. Анисимова. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 128 с.

8. Апухтин В.Б. Психолингвистический метод анализа смысловой структуры текста: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 1977. – 24 с.

9. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М., 1953. – С. 175.

10. Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2008. – 138 б.

11. Карнеги Д. Шесть способов располагать к себе людей. Greatwords.org^authors\218

12. Карнюшина В.В. и др. Синтаксические и фонетические средства формирования эмоционального настроения и интимизации общения в лекциях: тактики речевого воздействия // <https://cyberleninka.ru/article/n/sintaksicheskie-i-foneticheskie-sredstva-formirovaniya-emotsionalnogo-nastroya-i-intimizatsii-obscheniya-v-lektsiyah-ted-taktiki>

13. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006. – Б. 28.

14. Тожиев Ё. “Нутқ маданияти” ва “нотиклик саноати” курсларининг ўқитилишига доир // Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 208–210.

15. Тожиев Ё. ва б. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Т., 1994. – 132 б.

16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 591 б.

17. Ўзбек халқ мақоллари. 2 томли, 1-2-томлар. – Т.: Фан, 1987, 1988. – 366, 317 б.

18. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997. – 653 б.

19. Умархўжаев М. “Қизил китоб”га тушмас туйғулар [Матн]: қомусий луғат. – Т.: Akademnashr, 2019.

20. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 2005. – 146 б.

21. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Гафур Гулом, 1991. – 574 б.

22. Шаҳобиддинова, Ш.Ҳ., Юлдашева Ш.Х. Интернет мулоқот ва унинг тадқиқига доир айрим мулоҳазалар // Андижон давлат университети Илмий хабарномаси. – Андижон, 2018. – № 2. – Б. 85–88.

23. Шелестюк Е.В. Речевое воздействие. Онтология и методология исследования. – М.: Наука, 2014. – 344 с.

24. Эвфемизм. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

25. Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар изохли луғати. –Т., 2002. – Б. 45.

III. Интернет манбалари:

1. URL:http://www.ru.wikipedia.org/wiki/Креолизованный_текст

2. URL:<http://med.uz/spid/uz/news/detail.php?ID=16429>

3. URL:<http://muslim.uz/index>.

4. URL:<http://muslim.uz/index.php/maqolalar/zhuma-mav-izalari/item/15990-09-08-2019-j-bemorlarni-zijorat-ilish-insonij-burch>